



Handwritten notes: "Kaf", "Bor"

Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими  
бюджетларининг ғазна ижроси қоидаларига  
8-ИЛОВА

01.01.2021 даги

Жиззах "Сувокава" ДУКшахар филиали ва Мирзачул тумани ХТБ ўртасида 892425 сўм умумий  
суммага тузилган 26 - сонли шартномага  
**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ**

Боб  
Шахсий ғазна  
хисобварақ

075

100022860082237096100075004

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4224000			
Январь	297475			297475
Февраль	297475			297475
Март	297475			297475
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Жами йил бўйича</b>	<b>892425</b>			<b>892425</b>

Жами 892425 сўм

Сақиз юз тўксон ики минг тўрт юз йигирма беш сўм  
0 тийин  
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан \_\_\_\_\_ сўм ёки \_\_\_\_\_% \*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
\_\_\_\_\_ % \*\*\*20 \_\_\_\_\_ ойида тўланиши лозим.

(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига яққи нуسخада такдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига \_\_\_\_\_% жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари

М.Ў.

Буюртмачи бош бухгалтери



Анорбоев Ғайрат Исломиiddинович

(имзо) Ф.И.Ш.

Гулмурадов О. С.

(имзо) Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди \_\_\_\_\_

(имзо)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

Буюртмачи ходими  
қабул қилди \_\_\_\_\_

(имзо)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

## Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning qonun hujjatlariga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa

KO56325270

1. Loyihaning turi. Shartnoma.

2. Loyihaning nomi.

Mirzacho'l tuman xalq ta'limi bo'limi va "JIZZAX SUV TA'MINOTI" MCHJ tomonidan tuzilgan II-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha namunaviy shartnomasi to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana haqida ma'lumot.

Mirzacho'l tumani xalq ta'limi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va Mirzacho'l tuman Yuridik xizmat ko'rsatish markaziga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 28.01.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonunining 71-moddasiga hamda amaldagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Markaz Bosh yuriskonsulti



U.Siddiqov.

2022 yil 28 yanvar

JIZZAX «SUV TA' MINOTI» MChJ

Mirzacho'i tuman filiali

Budjet tashkilotlar bilan ichimlik suvi  
yetkazib berishva oqava suv xizmatlari  
ko'rsatish to'g'risida

№ 26 sonli

**SHARTNOMA**

Gagarin 2022 yil



**2.8.** Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash asboblari ishga tushirish, almashirish, yangi subisté'molchilarining ulanishi Iste'molchi tomonidan faqat Ta'minotchi tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular Iste'molchining so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. Ta'minotchidan olingan texnik shartlar Iste'molchi buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

**2.9.** Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi Ta'minotchi tomonidan, Iste'molchi va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

**2.10.** Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgarigan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan Iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va Iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarini amalga oshirishi shart.

**2.11.** Quyidagilar Ta'minotchi bilan Iste'molchi o'rtasidagi, kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalari)ga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) suv iste'moli uchun — kommunal tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, Iste'molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova suvlarni chiqarish (kanalizatsiya) uchun — Iste'molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug'i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq Ta'minotchi kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa Iste'molchining mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

### III. Tarafdarning huquq va majburiyatlari

**3.1.** Iste'molchining huquqlari:

a) Ta'minotchidan, ushbu shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz ravishda yoki Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida amalga oshirilishini, o'z mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat (O'ZDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) va miqdordagi ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblari o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun Ta'minotchidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarini to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

e) Ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatida ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida Ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

j) Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifati ichimlik suv bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

**3.2.** Iste'molchi quyidagilarga majbur:

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zlarining hududida va tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarning zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlash, ularning buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduqlarning qopqog'ini muz va qordan tozalash, Ta'minotchi tomonidan o'rnatilgan plombalarning saqlanishini nazorat qilish, yer usti suv oqimlarining quduqlar yonidan oqizib yuborilishini ta'minlash, yong'in gidrantlariga kirib borish yo'laklarini tirband qilmaslik, yong'in gidrantlari ko'rsatkichlarining ishga yaroqliligini kuzatib borish va mavjud bo'lgan yong'in gidrantlarini va yong'in kranlarini plombalash uchun taqdim qilish;

v) turli predmet va materiallarni: g uyum bo'lib saqlanishiga, shuningdek o'z hududida yoki tasarrufida bo'lgan ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalari ustida hamda ichimlik suv va kanalizatsiya tashqi joylashuvda bo'lgan (ko'chada va kvartal ichida) yerlarda biror-bir inshootlarni qurishga yo'l qo'ymaslik. Amaldagi tarmoqlarda o'z boshimchalik bilan qurilgan inshootlarda avariya sodir bo'lgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidani buzganing zimmasiga yuklanadi;

g) tranzit kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardagi o'zlari aniqlashgan nosozliklar yoki shikastlanishlar haqida Ta'minotchiga zudlik bilan xabar berish;

d) suvni hisobga olish asboblari daqqol ko'rinib turgan nosozliklar aniqlanganda (shu jumladan, tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat bo'yicha ham) Ta'minotchiga uning elektron pochta orqali yoki uning yagona "Call Markazi (1255)" raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda xabar berish;

e) shartnoma doirasidagi majburiyatlarini bajarish, joriy o'yning 23-25-sanasida suvni hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borish, joriy o'yning so'nggi sanasigacha Ta'minotchiga ko'rsatkich ma'lumotlari Ta'minotchining elektron manzili yoki telefon raqami orqali yohud Ta'minotchi joylashgan manzilga borgan holda taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish;

yo) suv sarfi va oqova suvlar oqizilishining shartnomada belgilangan hajmlardan oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) subisté'molchilardagi suv sarfini nazorat qilish va barcha turdagi suvni yo'qotishlar oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

z) o'ziga qarashli va u xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlar va qurilmalardan texnik jihatdan samarali foydalanishni ta'minlash;

i) ishlab chiqarish oqova suvlaridagi ifloslanish konsentratsiyasini normativdagi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) me'yorgacha yetkazgan holda oldindan tozalanishini ta'minlash;

y) kanalizatsiya tarmog'iga oqiziladigan oqova suvlar sifati bo'yicha monitoring o'rnatish;

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqdagi profililar va rasmiy sahifalar) orqali ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatlari shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

**IX. Shartnomaning amal qilish muddati**

9.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.


9.2. Shartnoma imzolangan va g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundun boshlab kuchga kiradi va "31" 12 2022 yilgacha amal qiladi.

9.3. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va taraffar tomonidan imzolanishi shart.

**X. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:**

**« TA'MINOTCHI »**

Manzil Mirzacho'l tuman G'alaba MFY Paxtakor ko'chasi  
Tel: 99872 312 14 80 faks  
h-r 226380080030453335  
Bank Iporeka banki  
Bank kodi 00122 STIR 200345016  
XHUT90213  
Shaxsiy raqam  
Shaxsiy h-r  
Bank



**« ISTE'MOLCHI »**

Manzil Manzil Uyuz o'yi 7-jm 815  
Tel: 5225 83 faks  
g'az/h-r 100226100222729946000004  
Bank 00014  
Bank kodi STIR 200339128  
XHUT  
Shaxsiy raqam  
Shaxsiy h-r  
Bank



**Yuridik xulosa:**

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarorlik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan

Yuriskonsult:

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2022 y.